

AXBOROT SOATI MATERIALLARI

5 iyun 2018 yil

BARCHA ISHLARIMIZ TUB ZAMIRIDA XALQIMIZNI ROZI QILISH MAQSADI MUJASSAM

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 1-iyun kuni Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishdi.



Davlatimiz rahbarining g'oyasi va tashabbusi bilan poytaxtimizda ulkan bunyodkorlik ishlari, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida strategik ahamiyatga ega yirik loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani aholining hayot darajasi va sifatini yuksaltirish, Toshkentni zamonaviy megapolisga aylantirishda muhim ahamiyat kasb

etmoqda.

Poytaxtimiz tumanlariga bu galgi tashrif davomida ham asosiy e'tibor ana shu yo'ldagi dolzarb reja va loyihalar ijrosiga qaratildi.

Prezidentimiz dastlab "Toshkent-Sharqiy" aerodromi bazasida barpo etilayotgan ishbilarmonlik aeroporti qurilish uchastkasiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari 2017-yil 2-dekabr kuni mazkur loyiha bilan tanishib, biznes-aviatsiyani tashkil etish va bunday turdagi barcha xizmatlarni ko'rsatishga qodir zamonaviy infratuzilmani barpo etish borasida ko'rsatmalar bergan edi.

Ishbilarmonlik aeroporti Markaziy Osiyo mintaqasida mutlaqo yangi tizim bo'lib, yakka tartibdagi va korporativ parvozlarga ixtisoslashadi. Loyiha mamlakatimiz transport va tranzit imkoniyatlarini yanada oshirishda muhim o'rin tutadi. Ayni paytda oliy darajadagi mehmonlar, xorijiy delegatsiyalar, ishbilarmonlar, sayyohlarga sifatli xizmat ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda eski uchish-qo'nish yo'lasi o'rniga 4 kilometrlik zamonaviy yo'lak qurilmoqda. Soatiga 250 yo'lovchini o'tkazish imkoniyatiga ega terminal barpo etish, keyingi bosqichda qo'shimcha infratuzilma obyektlari, mehmonxona majmuasi qurish rejalashtirilgan.

Shu kunga qadar bu yerda qariyb 20 ming kub metr tuproq ishlari bajarildi. Qurilish-montaj ishlariga 100 dan ortiq maxsus texnika jalb etilgan.

Aerodrom hududida bir vaqtning o'zida 20 ta samolyotga xizmat ko'rsatadigan perron quriladi. Shuningdek, qo'riqlash, aloqa va xavfsizlik

punktlari bunyod etilishi ko'zda tutilmoqda. Loyiha doirasida havo laynerlariga texnik xizmat ko'rsatish markazi, samolyot va vertolyotlarni saqlash uchun zamonaviy angar, yong'in xavfsizligi deposti quriladi. Shu bilan birga, dispetcherlik markazi va yo'lovchilar uchun ovqatlanish binosi barpo etiladi.

Loyihaning birinchi bosqichi 2020-yilda yakunlanishi belgilangan.

– Biznes-aeroportda xorijiy ishbilarmonlarga har tomonlama ma'qul bo'ladigan xizmatlarni yo'lga qo'yish uchun loyihasi mukammal bo'lishi kerak. Samolyotdan tushgan odam xalqimizning nechog'li bag'rikeng va mehmondo'st ekanini his etishi kerak. Shu bois zamonaviy loyiha instituti tashkil etib, Yaponiya, Germaniya kabi mamlakatlardan malakali mutaxassislarni ishga jalb etish lozim. Ana shunday qilsak, bu aeroport xalqimizga, farzandlarimizga ko'p yillar xizmat qiladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz poytaxtimizning Maxtumquli va Ohangaron ko'chalari kesishmasida barpo etilayotgan uch qavatli zamonaviy ko'prik loyihasini ko'zdan kechirdi.

Eng gavjum chorrahalaridan biri bo'lgan mazkur hududda uch qavatli yangi ko'prik qurilishi tirbandlikni kamaytirib, haydovchi va yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlaydi.

Ko'prikning Parkent ko'chasidan Ohangaron shossesiga o'tuvchi qismida uzunligi 500 metrdan ziyod tunel quriladi. Ikkinchi bosqichda Qorasuv dahasidan Maxtumquli ko'chasiga chiquvchi yo'lning mazkur tunel ustidan o'tgan qismida aylanma ko'prik bunyod etiladi. Ikkala ko'prik ustidan o'tuvchi uchinchi qavat Maxtumquli va Temur Malik ko'chalarini tutashtiradi. Shuningdek, Toshkent mexanika zavodida ta'mirlangan samolyotlarni ishbilarmonlik aeroportiga olib borish uchun yo'l o'tkazgich barpo etish rejalashtirilgan.

Ta'kidlash joizki, shu choqqacha yurtimizda uch qavat ko'prik qurilmagan edi. Endilikda O'zbekiston estakada bunyod etish tajribasini ham o'zlashtirmoqda.

Qurilish ishlarini 2019-yil avgust oyida to'liq yakunlash rejalashtirilmoqda.

– Bu ko'prik kelgusida Toshkent shahrining o'ziga xos tashrif qog'ozi bo'ladi, – dedi Prezidentimiz. – O'zbekiston uchun yangilik bo'lgan ushbu mahobatli inshoot Chorvoq va Chimyon hududini rivojlantirishga zamin yaratadi. Ko'prik qurilishi jarayonida avtomobillar harakati to'xtatilmaydi.

Yangi transport bog'lamasi Toshkent shahridan Chorvoq hududiga boruvchi yo'lni 22 kilometrga qisqartirmoqda. Ayni paytda poytaxt aholisi va xorijlik sayyohlarning Chorvoq hamda Chimyon hududiga tez va oson yetib olishi uchun Chirchiq daryosi ustidan ko'prik bunyod etilmoqda.

Shavkat Mirziyoyev yangi ko'prikni zamonaviy texnologiyalar asosida sifatli bunyod etish, kommunikatsiya tarmoqlarini joylashtirish yuzasidan zarur ko'rsatmalar berdi.

– Asosiysi, yoz jazirasida bu yerda qurilish ishlari transport qatnoviga noqulaylik tug'dirmasligi zarur. Buni hozirdan o'ylab puxta yechim topish, qurilishni 3 smenada tashkil etish lozim, – dedi Prezidentimiz.

Shu yerda davlatimiz rahbariga Toshkent yerusti halqa metro liniyasini qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari Chilonzor tumanining Afrosiyob va Beshyog'och ko'chalari kesishuvidagi hududda barpo etilayotgan ko'p tarmoqli "Humo Arena" muz saroyi qurilishini ko'zdan kechirdi.

Ushbu majmua dizaynida zamonaviy qurilish yechimlari va ilg'or texnologiyalar milliy madaniyat elementlari bilan uyg'unlashib ketgan. Majmua ko'kda parvoz etayotgan baxt va hurlik ramzi – Humo qushi shaklida barpo etilmoqda.

Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 3-fevral kuni "Humo Arena" loyihasi bilan tanishib, bu kabi zamonaviy sport inshootlarining barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan, mutasaddi rahbarlarga qurilishni yuqori sifat bilan amalga oshirish bo'yicha zarur ko'rsatmalar bergan edi.

Inshoot ikki qismdan iborat bo'lib, unda asosiy va mashq muz arenalari joy oladi. Umumiy maydoni 82 ming 250 kvadrat metrdan iborat 6 qavatli inshootning eng baland nuqtasi 40 metrni tashkil etadi.

Mobil o'rindiqlar bilan jihozlanadigan saroyda xokkey o'yinlarini 12 ming 500, boshqa sport musobaqalarini 14 ming, turli konsert va dam olish dasturlarini 10 ming tomoshabin kuzatish imkoniga ega bo'ladi. Dam olish maskani va ijtimoiy markaz sifatida barpo etilayotgan muz saroyida turli tadbirlarni o'tkazish mumkin bo'ladi. Xususan, arenada xalqaro xokkey o'yinlari, kyorling, figurali uchish, short-trek bo'yicha musobaqalar, basketbol, voleybol, gandbol, futzal, boks, taekvondo, qilichbozlik bahslarini o'tkazish imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, majmuada umumxalq bayramlari, konsertlar, ko'rgazma va forumlar tashkil etish mumkin.

Majmuada muhandislik tarmoqlari, yong'inni o'chirish, sovutish tizimlari, yoritish, ventilyatsiya, issiqlik manbai to'liq avtomatlashtirilgan holda, tejamkor texnologiyalar qo'llaniladi. Uning yonida 1 ming 375 avtomobilga mo'ljallangan 5 qavatli avtoturargoh qurilmoqda.

Prezidentimiz ushbu majmuada shug'ullanadigan xokkey, figurali uchish va boshqa sport turlari bo'yicha jamoalarni hozirdan shakllantirish, bu yerda yirik xalqaro musobaqalarni tashkillashtirish masalasini o'rganib chiqish lozimligini ta'kidladi.

Mazkur majmuani yil oxiriga qadar foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda Toshkent shahri markazi ulkan qurilish maydoniga aylangan. 80 gektar hududda barpo etilayotgan "Toshkent City" xalqaro ishbilarmolik markaziga nafaqat yurtimiz tadbirkorlari, balki xorijlik investorlar ham qiziqish bildirmoqda.

Prezidentimizning mazkur hududga tashrifi va qurilish ishlari bilan tanishuvi chog'ida bu haqda alohida so'z yuritildi.

Hozirgi kunda mazkur zamonaviy markaz hududi 7 qismga bo'linib, qurilish ishlari olib borilmoqda. Ayni paytgacha 42 ming kub metr tuproq ishlari bajarilgan, "Kongress xoll" va besh yulduzli mehmonxonaning yerosti monolit qoplamalarini mustahkamlash yakunlangan.

Davlatimiz rahbari “Toshkent City” qurilish jarayonini ko‘zdan kechirdi. Quruvchi-muhandislar, xorijlik mutaxassislar bilan suhbatlashdi.

Bugunga qadar “Toshkent City” ma‘muriyati tomonidan Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Janubiy Koreya kompaniyalari bilan zamonaviy turar joylar, ofis va savdo majmualari, ta‘lim muassasalari, 2 ta 20 qavatli savdo-ko‘ngilochar markaz, 40 qavatli multifunksional bino va inshootlar qurilishiga investitsiya kiritish bo‘yicha loyihalar imzolandi.

Prezidentimiz mehmonxona va “Kongress-xoll”ning ichki dizayni, kirish qismlari hamda nufuzli xalqaro anjumanlarni o‘tkazishga mo‘ljallangan zallar interyerlari loyihasi bilan tanishib, ularni milliy uslubda bezash va jihozlash yuzasidan zarur tavsiyalar berdi.

Poytaxtimizda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash, tirbandlikning oldini olish maqsadida ko‘plab ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlar bunyod etilmoqda. Chilonzor tumanidagi Bunyodkor va Cho‘ponota ko‘chalari kesishmasida qurilayotgan zamonaviy yo‘l o‘tkazgich shulardan biridir.

Yangi ko‘prikning umumiy uzunligi 676 metr, shundan estakada qismi 488,5 metr bo‘lib, balandligi 8 metr, kengligi 24,5 metrga teng. Transportlar 6 qatorda harakatlanadi. Shuningdek, 124 metrlik ikkita piyodalar o‘tish ko‘prigi ham qurilayapti. Nogiron va keksalarga qulaylik yaratish maqsadida ularda maxsus lift, eskalator o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari bu yerda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi, quruvchilar bilan muloqot qildi.

– Yangi ko‘priklar sifatli, juda puxta bo‘lishi kerak. Buning uchun o‘z ishimizga fidoyilik bilan yondashib, ko‘priksozlik bo‘yicha ilg‘or xorij tajribasini o‘rganib borishimiz zarur, – dedi Prezidentimiz.

Yangi inshootni loyihalashtirishda yoritish tizimiga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Unga ko‘ra, ko‘prikka jahon standartlariga to‘la javob beradigan energiya tejamkor jihozlar o‘rnatiladi. Qurilishda Germaniyadan keltirilgan zamonaviy texnikadan foydalanilayotgani ish unumdorligini oshirmoqda. Bugungi kungacha 256 ta to‘sindan 234 tasi o‘rnatilgan, 276 ta prizmatik qoziqning barchasi qoqilgan, shuningdek, piyodalar o‘tish yo‘lagidagi tayanch ustunlar to‘liq o‘rnatilgan.

Shu yerda yangi ko‘priklar qurish, mavjudlarini ta‘mirlash va ekspluatatsiya qilish borasidagi ishlar taqdimoti o‘tkazildi. Toshkent shahrida yana o‘n beshta joyda yo‘l o‘tkazgichlar qurilishi ma‘lum qilindi.

Davlatimiz rahbari ko‘prikarni saqlash, ta‘mirlash va ekspluatatsiya qilish masalasi ham g‘oyat dolzarb ekanini qayd etdi. Soha uchun maxsus mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan kollejar tashkil etish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

Yurtimizda aholining turmush farovonligini oshirish, odamlarimiz uchun zamonaviy shart-sharoit yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, “Obod qishloq” dasturi amalga oshirilmoqda. Endi shaharlar uchun “Obod mahalla” dasturi ishlab chiqilmoqda.

Chilonzor tumanidagi Xirmontepa mahallasi tajriba tariqasida ushbu konsepsiya asosida obod qilinmoqda. Hududda joylashgan 24 ta ko‘p qavatli uy

ta'mirlandi. Mahalla idorasi xodimlari, profilaktika inspektorlari uchun bino, kommunal to'lovlar shoxobchasi, bolalar va sport maydonchalari barpo etilmoqda.

Prezidentimiz shu yerda mahalla faollari, ko'p qavatli uylarda yashovchi aholi va bolalar bilan suhbatlashdi, ularning o'y-tashvishlari bilan qiziqdi.

– Har bir mahallani Jizzaxdagi Manasga o'xshatib obod qilishimiz kerak. Barcha ishlarimiz tub zamirida xalqimizni rozi qilish maqsadi mujassam. Buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga solamiz, – dedi davlatimiz rahbari.

Shavkat Mirziyoyev Chilonzor tumanidagi Tirsakobod mahallasida ham bo'lib, bu yerda amalga oshirilayotgan obodonlashtirish ishlari bilan tanishdi.

“Tirsakobod” mahalla fuqarolar yig'ini hududida 9 ko'p qavatli uy va 864 hovli mavjud. Bu yerda yashayotgan 5 ming 200 dan ortiq aholi orasida turli millat vakillari bor.

Mahallada Prezidentimizning 2017-yil 3-fevraldagi “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni asosida obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

“Sherobod building” mas'uliyati cheklangan jamiyati bilan hamkorlikda mahalla markazida choyxona, novvoyxona, go'zallik saloni, do'konlar, sport va bolalar maydonchalarining zamonaviy qiyofada qad rostlashi mahalla ahli va unga yondosh hudud aholisi uchun ayni muddao bo'lmoqda.

Bu yerda “Obod mahalla” loyihasi asosida mahalla raisi, kotibi, maslahatchilar, profilaktika inspektori, nuroniylar uchun xonalar, kutubxona, majlislar zali, bolalar maydonchasi, yoshlar uchun sport inshootlari, favvoralar qurilishi, o'rindiqlar, soyabonlar, tungi yoritgich moslamalari o'rnatish kabi ishlar jadal ketmoqda.

Davlatimiz rahbari mahalla faollari bilan muloqotda bo'ldi.

Poytaxtimiz va mamlakatimizning barcha hududlarida zamonaviy mahalla markazlari bunyod etish, aholi bilan doimiy muloqot qilish, uning farovonligi va tinchligini ta'minlash bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Toshkent shahri va tumanlari hokimlari, mutasaddi rahbarlar ishtirokida yig'ilish o'tkazildi.

Tanqidiy-tahliliy ruhda o'tgan yig'ilishda poytaxtimizda sanoat va kichik biznesni rivojlantirish, aholi bandligini oshirish, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash bo'yicha dolzarb chora-tadbirlar belgilab berildi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI “ROSATOM” DAVLAT KORPORATSIYASI BOSH DIREKTORINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30 may kuni mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan “Rosatom” atom energiyasi bo'yicha davlat korporatsiyasi bosh direktori Aleksey Lixachyovni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonni qutlar ekan, O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini izchil mustahkamlashga, o'zaro manfaatli serqirra hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilayotgan oliy va yuqori darajadagi muloqotlar muntazamlik kasb etganini



chuqur mamnuniyat bilan qayd etdi.

O'zaro tovar ayirboshlash hajmi jadal ortib bormoqda, birgalikda investitsiya, energetika, sanoat, transport va boshqa sohalarda yirik loyihalar amalga oshirilmoqda, izchil hududlararo muloqot yo'lga qo'yilgan, madaniy-gumanitar almashuvlar faollashdi.

Muzokarada fan va yuqori texnologiyalar sohasida uzoq

muddatli sheriklik aloqalarini rivojlantirish va mustahkamlash, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, ikki mamlakat ilmiy-tadqiqot institutlari va innovatsiya markazlari o'rtasida, jumladan, o'tgan yili imzolangan Atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish sohasida hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo bitim doirasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Qo'shma dastur va loyihalar doirasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish muhimligi ta'kidlandi.

"Rosatom" davlat korporatsiyasi bosh direktori Aleksey Lixachyov samimiy qabul uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirib, Rossiya Federatsiyasi rahbariyatining salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

Rossiya mamlakatlarimiz va xalqlarimiz manfaatlarini yo'lida energetika sektorida keng ko'lamli sheriklik va o'zaro foydali ilmiy-texnologik hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdorligi va bunga tayyorligi alohida qayd etildi.

DEPUTATLAR DAVLAT BYUDJETINING 2017-YILDAGI VA 2018-YILNING BIRINCHI CHORAGIDAGI IJROSINI KO'RIB CHIQQILAR

Joriy yilning 31-may kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Deputatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdim etilgan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2017-yilgi hamda 2018-yilning birinchi choragidagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni ko'rib chiqdilar.

Taqdim etilgan hisobotlar palataning Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasida, siyosiy partiyalar fraksiyalarining va O'zbekiston Ekologik harakati deputatlar guruhining majlislarida dastlabki tarzda ko'rib chiqilgan edi.

Yig'ilishda ta'kidlanganidek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirish, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini tubdan rivojlantirish bo'yicha olib borilgan chora-tadbirlar natijasida iqtisodiyotni barqaror, muvozanatlashtirilgan holda rivojlantirilishi va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari ta'minlandi.

Majlisda valyuta siyosatini liberallashtirish va tashqi savdo faoliyati sohasini takomillashtirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, uning eksport salohiyatini oshirish, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishlarni yaratish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qilayotgani ta'kidlanib, bularning natijasida 2017 yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining 5,3 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi – 7,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 2,0 foiz, xizmatlar– 8,9 foiz hamda qurilish – 5,6 foizga o'sishi ta'minlangani qayd etildi.

Shu bilan birga, tushumlar barqarorligiga erishilganligi hamda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash orqali Davlat byudjeti 337,3 milliard so'm yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz miqdorida profitsit bilan ijro etilgan.

Deputatlar iqtisodiyotni mutlaqo yangi asosda tashkil etish va yanada erkinlashtirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida qator qonunlar, mamlakatimiz Prezidentining farmon va qarorlari, davlat dasturlari qabul qilinib, ular bugun muvaffaqiyatli amaliyotga joriy etilayotganligini, shuningdek, iqtisodiyot sohasida zamon talablariga javob beradigan, yangicha ma'no-mazmundagi va samarali islohotlarni amalga oshirish yo'lida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganligini e'tirof etdilar.

Davlatimiz rahbarining 2017 yil 7 iyundagi mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish hamda mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirishga qaratilgan farmon va qarorlarining ijrosi natijasida o'tgan yilda mahalliy byudjetlarning daromadlar qismi prognozga nisbatan 104,9 foizga bajarilgan.

Hisobot davrida Davlat byudjeti xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligi ta'minlanib, Hukumat tomonidan asosiy e'tibor byudjet xarajatlarning samaradorligini ta'minlash, ijtimoiy xizmatlarning sifatini oshirish, birinchi darajali to'lovlar bo'yicha xarajatlarni to'liq va o'z vaqtida moliyalashtirish hamda byudjetlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish borasida qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, bugun hayotga joriy etilayotganligi, Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining belgilangan parametrlar doirasida ijro etilishida asosiy omil bo'lganligi qayd etildi.

Chunonchi, ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish uchun Davlat byudjeti xarajatlarning 55,2 foizi miqdorida mablag' sarflandi. Ijtimoiy xarajatlarning 58,7 foizi ta'lim tizimini saqlash va rivojlantirishga hamda 26,9 foizi sog'liqni saqlash sohasi xarajatlariga sarflanganligi mamlakatda inson kapitalini o'stirishga va

aholi salomatligini ta'minlashga bo'lgan e'tibordan dalolat ekanligi alohida ta'kidlandi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2018 yil birinchi choragidagi ijrosi to'g'risidagi hisobotni ko'rib chiqish davomida deputatlar Davlat byudjeti daromadlarining shakllanishi va xarajatlarining sarflanishi holatini tahlil qildilar.

Taqdim etilgan hisobotlar deputatlar va senatorlar tomonidan joylardagi haqiqiy holatni o'rganish hamda nazorat-tahlil faoliyatini amalga oshirish jarayonlarida Davlat byudjeti mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, xududlarda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish borasida hali yechimini kutayotgan masalalar borligiga qaratib, joriy yilning birinchi choragida mahalliy byudjetlar daromadiga 874,0 milliard so'm qo'shimcha tushgan mablag'larni aynan shu masalalarni hal etishga yo'naltirish maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi taklifni ilgari surdilar.

"Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" Davlat dasturini ijro etish maqsadida yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun ham juda katta moliyaviy mablag'lar ko'zda tutilganligi ta'kidlanib, ularning natijadorligi va samaradorligini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini ham eslatib o'tdilar.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda deputatlar tomonidan xududlarning resurs salohiyatini to'liq amalga oshirish, byudjet mablag'laridan yanada samarali foydalanishni ta'minlash, mahalliy byudjetlar daromadini oshirish borasida joylarda mavjud imkoniyat va rezervlarni to'la ishlatishga alohida e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlandi.

Muhokamalar davomida deputatlar mahalliy davlat organlari mansabdor shaxslarining ijro intizomini oshirish, Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining kelgusi davr uchun o'z vaqtida va sifatli ijro etilishi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish, buning uchun xalq deputatlari tegishli Kengashlari bilan hamkorlik qilish yuzasidan aniq vazifalarni belgilab olish zarurligini ta'kidladilar.

Majlis yakunlariga ko'ra Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2017 yildagi hamda 2018 yil birinchi choragidagi ijrosi to'g'risidagi hisobotni tasdiqlash haqida qaror qabul qildi.

Deputatlar parlament Qonunchilik palatasining vakolatlariga taalluqli boshqa masalalarni ham muhokama qildilar.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Axborot xizmati**

SAYYOHLAR UCHUN YOPIQ BO'LGAN TABIIY OB'EKTLAR OCHILDI

«Suffa» radioastronomik majmuasi, Guralashsoy hududi, Temurlang g'ori, Janka ko'li, Seversev muzligi va boshqa maskanlar sayyohlar uchun ochildi.

O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 29 maydagi qarori bilan mamlakatdagi bir qator ob'ektlar va hududlar turistlar tashrif buyurishi taqiqlangan joylar ro'yxatidan chiqarildi. Bu haqda Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi matbuot xizmati «Gazeta.uz»ga xabar qildi.

Quyidagi hududlarga endilikda tashrif buyurish mumkin:

- Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi «Suffa» platosida joylashgan xalqaro radioastronomik majmua (RT-70) va unga tutash hududlar;

- Jizzax viloyati chegarasida — Guralashsoy, Zomin sanatoriyasidan Suffa platosi orqali yo'l va Muzbuloq qishlog'igacha bo'lgan Qizilmozor tabiiy hududi;

- Qashqadaryo viloyati chegarasida — Qalasoy darasidagi Temurlang g'ori, Toshqo'rg'on qishlog'i, Qalasoy darasidagi dinozavrlar izlari, Qalasoy darasidagi sharshara, Suvtushar sharsharasi, Jovuz, G'ilon, Kul qishloqlari, Xo'ja Karshavar platosi, Janka ko'li, Severseva muzligi, Hazrat Sulton ziyoratgohi.

Turizm qo'mitasidan qayd eilishicha, ushbu qaror O'zbekiston jozibadorligini oshirish hamda chet ellik va mahalliy turistlarni jalb qilish maqsadida qabul qilindi.

BOKSCHILARIMIZ O'NTA MEDALNI QO'LGA KIRITDI

Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida boks bo'yicha "Gubernator kubogi" musobaqasida O'zbekiston terma jamoasi 4 oltin, 3 tadan kumush va bronza medallarni qo'lga kiritdi.

Musobaqada Rossiya, O'zbekiston, Belarus, Kuba, Ukraina, Bolgariya, Armaniston, Moldova, Ruminiya, Qozog'iston va Qirg'izistondan kelgan 200 dan ortiq charm qo'lqop ustalari g'oliblik uchun kuch sinashdi.

Terma jamoamiz a'zolari Isroil Madrimov, Miraziz Mirzaxalilov, Bektemir Meliqo'ziyev, Bahodir Jalolov barcha raqiblarini mag'lubiyatga uchratib, oltin medal sohibi bo'ldi.

Finalga qadar barcha janglarda zafar quchgan Hasanboy Do'smatov, Shahobiddin Zoirov, Shunqor Abdurasulov kumush, Sanjar Tursunov, Iqboljon Xoldorov va Jasurbek Latipov esa bronza medal bilan taqdirlandi.